

faqat aqliy tarbiya vositasi sifatida emas, balki o'zga madaniyat qadriyatlari, bu bilan birgalikda, til boyliklari bilan tanishish kabi masalalar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Yevropada chet tilini uzoq vaqt o'rganish yuqori darajadagi ta'lim olishga imtiyoz beradi.

Chet til o'qitish metodi — deyilganda chet tilini o'rgatishning amaliy, umumta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuv ta'minlovchi muallim va o'quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi.

Muhokama va natijalar. Tabiat va jamiyat hodisalari o'zaro bog'langan va uzluksiz aloqada rivojlanadi. Hodisa va predment ayni zamonda ko'plab fanlarning tadqiqot manbai hisoblanadi, shuningdek, til itimoiy hodisa sanalib, o'z nuqtayi nazaridan tilshunoslik, ruhshunoslik, ta'limshunoslik o'rganadi. "Chet tili metodikasi" atamasi kishi ongida quyidagicha ya'ni assotsiatsiya "bog'lanish" uyg'otadi: avvalambor, tilni o'rgatish usullari va unga qaratilgan metodlar yig'indisi hisoblanadi. Chet tillar o'qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq atamalar hisoblanadi.

Metodlar tarixi atoqli metodist professor I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o'rganilgan. Tajriba metodi ikki asosda bo'lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumiyta'limiy maqsadda o'rganilgan.

Chet til o'qitish metodikasida "kommunikativ didaktika" metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika o'zida quidagilarni o'zida mujassamlashtiradi:

- Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiyasi;
- Mavzu va mazmun muhim;
- Darsdagi asosiy ish shakli: suhbatlashish va guruh bo'lib ishlash;
- Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o'rganish.

Madaniyatlararo muloqotlar – turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, milliy xarakteri, hayot tarzi, urf-odatlar, qadriyatlari sistemalari to'g'risidagi muloqot - ma'lumotidir. Mazkur jarayonda o'quvchi-talabalarni o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr-toqat qilish va o'zga mamlakat madaniyatini to'g'ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim.

Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlilik, bag'rikenglik hisoblanadi. Har bir chet tili darsi madaniyat chorrahasi, madaniyatlararo muloqot amaliyoti sanaladi. Chunki mazkur jarayondagi har bir chet tilidagi so'z chet el hayotini va madaniyatini o'zida aks ettiradi. O'qituvchilar oldidagi vazifa o'quvchi va talabalarning kommunikativlik, muloqotga kirisha olish qobiliyatini o'stirishdan iborat. Buning uchun kishilarni samarali muloqot qilishiga o'rgatuvchi o'quv qo'llanmalar, shu bilan birga chet tildagi 4ta nutq faoliyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'limning yangi metodlarini o'zlashtirish zarurdir.

Madaniyatlararo muloqotlarda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo'l qo'ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida "tee oder kaffee?" ya'ni "choy"mi yoki "kofe"mi degan savolga ona tilimizda "tee" "choy" deb javob beramiz, lekin nemis tilida ammo bu javob to'g'ri kelmaydi. Nemis tilida "bitte tee", ya'ni "marhamat choy" deb javob beriladi. So'z

kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog'laydi. Yangi materialni bir vaqtning o'zida barcha nutq faoliyati turlarida qo'llash natijasi malaka va ko'nikma hosil qiladi.

Kommunikativ ko'nikmalarni quyidagi gurularga ajratish mumkin:

1. Ijtimoiy-psixologik ko'nikmalar;
2. Axloqiy-estetik ko'nikmalar;
3. Estetik ko'nikmalar;
4. Texnologik ko'nikmalar .

Pedagogik muloqot madaniyati uchun zarur bo'lgan qator shaxsiy sifatlar: haqqoniylik, ochiqlik , o'z-o'zini boshqara olish , talabchanlik, samimiylik, sabr-toqatlik, chidamlilik, taktika kabilarni o'z ichiga oladi. O'qituvchi faqat o'z kommunikativ mahoratini emas, balki o'quvchilarning ham madaniyatlararo muloqotini shakllantirishi lozim. O'qituvchi o'quvchi psixologiyasini puxta bilishi talab etiladi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, pedagogik, madaniyatlararo muloqot yakuniy natijaga ko'ra muvaffaqiyatga erishishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi bu pedagog-muallimning qanday muomala metodini tanlashi va uni qanday amalda qo'llay olishiga bog'liqdir. Albatta , bu natijaga faqatgina darsni to'g'ri tashkil etish, ilg'or, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng amalda foydalanish orqaligina erishish mumkin.

Xulosa . Chet tilini o'rganish ko'p qirrali ta'limot bo'lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan, ona tili va chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda turli metod hamda texnologiyalardan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet tili bilan ona tilini taqqoslab o'rganish samarali natija beradi.

Kommunikativ didaktika metodini qo'llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet tilini o'rganish natijasida o'zga malakat madaniyati ham o'zlashtiriladi. Chet til ta'limida kerakli bilimlarni egallash uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta'limida, balki barcha soha bilimlarini o'zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etishda pedagog faoliyati va zamonaviy texnologiyalarning o'rni beqiyos. Chet til o'rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun pedagog zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlarni egallashi lozim.

REFERENCES:

1. Maxmudov, Q.S.O.G.L., Shayxislamov, N.Z.O.G.L., Jo, B.B. (2020). O'zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o'rni va ularning turli tasniflanishi. *Science and Education*, 1 (Special Issue 3).
2. Juraboyev, B.B (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv . *Science and Education*, 7(7), 215-220.
3. Joraboyev, B. B . O. (2021) Using authentic materials on english lessons. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
4. Joraboyev, B. (2020) . Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. *Science and education* , 1 (special issue 4).
5. Juraboyev, B. B. U. (2021). Problems and solutions for online teaching and learning of foreign languages. *Academic research in educational sciences*, (3).

FARIDA AFRUZ SHE`RIYATIDAGI AYRIM LINGVOESTETIK XUSUSIYATLAR

BuxDU o`zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida

2-bosqich magistranti

Ro`ziqulova Nilufar

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvoestetika sohasi hamda uning lingvistika fanida tutgan o`rni borasida nazariy qarashlar ilgari suriladi. Lingvoestetika yo`nalishi qator sohalar bilan bevosita bog`liq bo`lib, xususan, adabiyot fani bunda yetakchilik qiladi. Biz tadqiq etmoqchi bo`lgan ushbu ilmiy maqolada xalqimizning taniqli shoirasi Farida Afruz ijodi hamda uning she`riyatidagi lingvoestetika xususida so`z yuritiladi.


Kalit so`zlar: lingvoestetik qarashlar, Farida Afruz, ijod, adabiyot, badiiyat, hissiyot, tovush, mazmun.

Tilshunoslik va adabiyot fani har jihatdan o`zaro aloqadorlikda taraqqiy etadi, rivojlanib boradi. Mazkur ishimizda til va adabiyot bilimdoni Farida Afruz hamda uning she`riyati lingvoestetikasining o`ziga xos jihadlarini kuzatishga harakat qilamiz.

Farida Afruz she`rlari turk, ingliz, rus, fransuz va shu kabi dunyoning qator tillariga tarjima qilingan[8]. Shoiraning o`zi ham mohir tarjimon sifatida Mehri Hirotiy, Zahro Abul Husayniy, Sudoba, Soya Kabiriy kabi qator ijodkorlarning asarlarini o`zbek tiliga tarjima qilgan[7].

Lingvoestetika lingvopoetikaning tarkibiy qismi sifatida o`z kuzatish obyekti va predmetiga ega. Tilshunoslikning lingvoestetika sohasi o`z ichida quyidagi uch omilni birlashtirishi bilan ahamiyatlidir[3].

Yuqoridaqaydetilganuchelementbirlashib, ushbuyo`nalish,



ya`ninglingvoestetikaningyuzagachiqishinita`minlaydi.

Tovushvamazmuno`zarouyg`unlikhosilqilganholdakishiemotsiyalarigata`siro`tkazishvazifasi nibajaradi.

Aytishmumkinki, rushamdaingliztilshunosligidafaoltadqiqqilinayotganushbuhodisaqatorolimlarilmiyishlariku zatilganbo`lib, ulardamazkurmasalatadqiqiuyokibudarajadaekanligianiqlandi. Masalan,

N.S. Bolotnova, V.A. Maslova, V.P. Rakov, L.V. Zubovvashukabilartadqiqotlariniaytishimizmumkin[9].
Buboradagi ilg`or fikrlar ustilshunosi A. Potebniyaning “Estetikavi tilshunoslik” asaridan o`rinlangan bo`lib, olimso`zlarning inson hissiyotlariga ta`siretishi, ularning qaydarajada ohangdorlik bilan talaffuz etilishiga, ovozsifatiga, uning notiq tomonidan qayholatda o`qilishiga ahamiyat qaratadi. Bundantashqari, so`z semantikasi, ya`ni mazmuni hamda strukturasi – tuzilishi ham lingvoestetikaning muhim predmetlaridan biri ekanligini qaydetib o`tadi. Demak, lingvoestetika millarning yuzagachiqishi, qaysidir ma`noda, shoir qalamining o`tkirligi hamdanotiq ovozining dadilligigahambog`liq[4].

Farida Afruzshe`riyati lingvoestetik jihadanyuqorior`ne g`allashga qodirijodnamunasidan aladi. Uning har bir she`riy namunasida lingvoestetika belgilari mujassam. Ayrim misollarni kuzatamiz:

Opa, ona bo`lmading, onamdan keyin,
Yukundim, yugurdim, chopdim yoningga.
Sen esa ro`zg`orning loyiga botding,
O`z bolalaring jon bo`ldi, joningga[8].

Yuqorida keltirilgan she`r so`zlaridagi tovushlar o`ziga xos estetik ta`sir etishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. She`rning birinchi baytida ohangdorlikni ta`minlab beruvchi tovush “o” unlisi hisoblanib, u ketma-ket holatda uch so`z tarkibida ishtirok etgan: opa, ona, onamdan. Bu bilan fonetik vosita sifatida assonans hodisasi yuzaga kelgan. Bundan tashqari, “bo`lmading” leksemasi tarkibida qatnashgan “o” unlisi ham qayd etilgan so`zlardagi ohangdoshlikni yuzaga keltirgan.

Ikkinchi misradagi tovushlar ohangdorligi “y” undoshi orqali yuzaga keltirilgan hamda ushbu uch leksemada namoyon bo`lgan: yukundim, yugurdim yoningga. Uchinchi satrda tovushlar xilma-xilligi kuzatilib, to`rtinchi misradagi ta`sirchanlik “jon”, “joningga” so`zlarida ishtirok etgan “j” undoshi orqali namoyon bo`lgan. Bularning bari fonetik vosita bilan uslub yaratish natijasi sanaladi. Bunda ushbu she`riy parcha, birinchidan, o`qishli bo`lgan, ikkinchidan, ta`sirli bo`lishi ta`minlangan.

Sh bilan bir qatorda, parchadagi tovushlarning takror qo`llanilishi she`r mazmunidagi “g`amginlik” holatini ham yuzaga chiqargan. O`qish jarayonida ham ushbu pozitsiya bevosita saqlanib qoladi. Birinchi misradagi “ona bo`lmading” sintaktik butunligi mazmunda “tushkunlik” yuqori darajada ifoda semasini yuzaga chiqargan. Ikkinchi misradagi fe`llar o`rtasidagi ma`noviy darajalanish ushbu holatni yanada kuchaytirgan:

yukundim - birinchi daraja

yugurdim - ikkinchi daraja

chopdim - uchinchi daraja

Uchinchi misrada qo'llanilgan "ro'zg'or loyiga botmoq" ifodasi esa she'rdagi "g'amginlik" holatini yanada kuchaytirgan, nazrimizda. Oxirgi misrada umumiy mazmun "g'amginlik" dan "yupatish" ga ko'chib, bu "jon bo'ldi joningga" izohi orqali yakun topgan. Ko'rinadiki, she'rda qo'llanilgan tovushlar uyg'unligi hamda mazmundagi aniqlik va uni ta'minlashda qo'l kelgan ma'noviy darajalanish kishi hissiyotlariga ta'sir etishda muhim o'rin tungan.

Yuqorida qayd etib o'tganimizdek, lingvoestetikada tovush, mazmun hamda o'quvchi hissiyotlari uyg'unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Quyidagi misralari orqali ham she'rdagi mazmunning shaxs hissiyotlariga ta'siri borasida o'z fikrlarimizni bayon etamiz:

Tozarmoq istasang, sevgiga yukin,
Muhabbat suvin sep, qaqroq dunyongga.
Behuda kunlaring armon-la boqar,
Ertangga ishonch ber, yetsin oshyonga[8].

"Tozarmoq istasang..." deya boshlanuvchi Farida Afruz she'rlaridan biri o'zida ko'tarinki kayfiyatni "tashiydi". Buni quyidagi leksemalar orqali anglash mumkin: "sevgiga yukin", "muhabbat suvin", "ishonch ber", "yetsin oshyonga". Biroq ko'tarinkilikka qarama-qarshi ravishda "tushkunlik" emtosiyasi ham yetakchilik hosil qilib, o'rtada ziddiyat yuzaga keltirgan: "qaqroq dunyo", "behuda kunlar", "armon-la boqar". Demak, ikki xil kayfiyatning bir bandda qarama-qarshi holatda qo'llanilishi mutolaa qiluvchi ong-u tafakkurida ham xilma-xillikni yuzaga keltiradi. Misralardagi ayrim jumjalarning mohiyatini ochib berishga harakat qilsak, ulardagi kurashuvchanlik ohangining ham ustuvor ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin, jumladan:

"Muhabbat suvin sep / qaqroq dunyongga" – bu ikki sintagmaning birinchisi pozitiv ruhiyatni tashisa, ikkinchisida negativ fikr hukmron.

"Muhabbat suvin sep" jumlasini orqali muallif tushkun kayfiyatdagi o'quvchiga o'z dunyosini sevgi suvi ila poklashini, sababi, sevgi faqatgina pok ko'ngillarda bo'lishini uqtirmoqchi bo'ladi. "Qaqroq dunyo" istilohi esa bevosita kishining charchagan, tashvishlardan ezilgan dunyosini aks ettiruvchi ko'chma ma'nodagi birlik sanaladi. Demak, aytish mumkinki, Farida Afruz o'z she'rlari orqali nafaqat yaxshi kayfiyatni tashiy olgan,